


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2026-yil 1-mart holatiga ko'ra
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)*

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026- yil 1-mart holatiga ko'ra, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 24,2 mingtani tashkil etadi, shundan 20,1 mingtasi yoki 82,9 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2025 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,9 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 113,8 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).

Yil	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
2026	24 277	20 228	20 124
2025	21 696	17 760	17 676
2024	25 354	21 555	21 474
2023	23 321	19 640	19 556
2022	23 997	20 341	20 255

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Nukus shahrida – 27,0 foiz, To'rtko'l tumanida – 10,0 foiz, Beruniy tumani – 8,8 foiz, Amudaryo tumani – 7,9 foiz va Ellikqal'a tumanida – 6,9 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Nukus shahrida – 27,5 foiz, To'rtko'l tumanida – 10,5 foiz, Beruniy tumani – 9,1 foiz, Amudaryo tumani – 8,0 foiz va Ellikqal'a tumanida – 6,9 foizga to'g'ri keldi.

Tumanlar kesimida korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Tumanlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	24 277	20 228	20 124
Amudaryo tumani	1 921	1 613	1 609
Beruniy tumani	2 142	1 835	1 824
Bo'zatov tumani	405	320	320
Qorao'zak tumani	605	457	456
Kegeyli tumani	788	634	629
Qo'ng'iro't tumani	1 396	1 138	1 129
Qonliko'l tumani	699	571	569
Mo'ynoq tumani	706	590	588
Nukus tumani	971	815	812
Taxiatosh tumani	718	587	579
Taxtakopir tumani	388	266	261
To'rtko'l tumani	2 419	2 125	2 119
Xo'jayli tumani	1 186	981	974
Chimboy tumani	1 081	857	852
Shumanay tumani	629	495	493
Ellikqal'a tumani	1 673	1 390	1 382
Nukus shahri	6 550	5 554	5 528

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026- yil 1 mart holatiga 36,3 foizni tashkil etdi.




Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 13,9 foiz, uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 13,1 foiz. Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 708	2 649	2 641
Sanoat	2 826	2 822	2 789
Qurilish	1 628	1 604	1 591
Savdo	7 315	7 314	7 308
Tashish va saqlash	848	843	841
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 484	1 479	1 479
Axborot va aloqa	506	472	468
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	713	460	460
Boshqa turlar	6 249	2 585	2 547

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-mart holatiga ko'ra, 20,2 mingta faol tijorat korxonalaridan 16,5 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.




Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	16 578	81,9
Xususiy korxonalar	1 596	7,9
Oilaviy korxonalar	1 710	8,5
Aksiyadorlik jamiyati	18	0,1
Boshqalar	326	1,6

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 223 ta korxonalardan 79 qo'shma korxonalar va 144 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026- yilning 1-mart holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan yo'nalishlar bu sanoat sohasidagi korxonalar soni 105 ta, savdo sohasida 46 ta va qurilish sohasida 18 tani tashkil etdilar.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	223	79	144
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20	11	9
Sanoat	105	42	63
Qurilish	18	3	15
Savdo	46	10	36
Tashish va saqlash	2	1	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	3	2
Axborot va aloqa	9	2	7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2		2
Boshqa turlar	16	7	9

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 94 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi.

Bu respublikadagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 42,2 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib eng ko'p hissasini qo'shgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi 14,3 foizni, Turkiya 7,6 foizni, Qozog'iston 7,2 foizni va Janubiy Koreya 4,9 foizni tashkil etadi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	223	79	144
Xitoy	94	26	68
Rossiya	32	19	13
Turkiya	17	3	14
Qozog'iston	16	5	11
Afg'oniston	2	2	0
Janubiy Koreya	11	3	8
Turkmaniston	5	2	3
BAA	8	2	6
AQSH	3	2	1
Qirg'iziston	3	0	3
Boshqa davlatlar	32	15	17

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1-mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
B. Daribaev
61 222-78-52 (9560)

Maznil:
230103, Nukus sh.,
A. Dosnazarov ko'chasi, 97 a-UY
